

O‘zbekiston
Metama'lumot
Milliy hisoblar

Ishlab chiqilgan sana: 01.03.2020 yil

Oxirgi yangilangan sana: 23.09.2021 yil

0. Asoslar

0.1 Qonuniy asoslar

0.1.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi 2021-yil 11-avgustda qabul qilingan “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi [Qonuniga](#) muvofiq mustaqil ravishda o‘z faoliyatini yuritadi.

Ushbu Qonunning rasmiy statistika sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Qonunning amal qilishi rasmiy statistikani tayyorlovchilarga va undan foydalanuvchilarga, respondentlarga hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarga, shuningdek ular o‘rtasida yuzaga keladigan, rasmiy statistikani tayyorlash, tarqatish va muvofiqlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

2017-yil 2-sentyabrda tasdiqlangan va Davlat statistika qo‘mitasining vakolatlari, funktsiyalari va tarkibini aniqlab beradigan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida [Nizom](#)”ga muvofiq Davlat statistika qo‘mitasi milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas‘ul, shuningdek ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tarqatish bo'yicha asosiy organ bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistika uslubi bilan ta'minlash vazifalarini bajaradi.

Rasmiy statistika to‘g‘risidagi Qonunning 14-moddasiga muvofiq davlat statistika organlari quyidagi huquqlarga ega:

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish va statistika kuzatuv ma'lumotlaridan statistika maqsadlarida foydalanish;
- statistik birliklar faoliyatining statistika kuzatuvlarini o‘tkazish va olingan birlamchi ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;
- jismoniy shaxs bo‘lgan respondentlarni statistika kuzatuvlarida ishtirok etganligi uchun rag‘batlantirishni amalga oshirish;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan axborotni so‘rash hamda olish;
- rasmiy statistikani tayyorlash uchun zarur bo‘lgan statistika ma'lumotlarini yig'ishga jismoniy va yuridik shaxslarni qonunchilikka muvofiq shartnoma asosida jalb etish;
- statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularga ishlov berish, ularni umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlashning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanish hamda ularni milliy statistika tizimiga joriy etish;

- statistika ma'lumotlarini taqdim etish bilan bog'liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;
- statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qonunga muvofiq o'z vakolatlari doirasida qo'llash.

2017-yil 12-sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F-5054-son farmoyishiga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar Xalqaro Valyuta Fondining kengaytirilgan umumiy ma'lumotlar tarqatish tizimi (k-MTUT)ga to'g'ri kelishi va uning doirasida muvofiqlashtirilishi kerak.

0.1.2 Ma'lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasiga asosan rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi.

Vakolatli davlat organi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining faoliyatini statistika dasturlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini tayyorlash uslubiyatini o'z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlarida xalqaro tavsiyalarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda vakolatli davlat organi statistika uslubiyatlari auditi yakunlariga ko'ra ushbu tayyorlovchilarga ijro etilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan statistika ma'lumotlarini shakllantirish va vakolatli davlat organi bilan axborot almashinuvini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan bo'linmalar tashkil etiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar o'zlarida mavjud bo'lgan statistika ma'lumotlarini va (yoki) ma'muriy ma'lumotlarni vakolatli davlat organiga statistika dasturlarida belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etadi.

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasiga asosan, Statistika kengashi vakolatli davlat organi huzuridagi rasmiy statistikaning rivojlantirilishi, faoliyat ko'rsatishi va muvofiqlashtirilishi masalalari bo'yicha kollegial maslahat organidir.

Statistika kengashining tarkibi davlat boshqaruvi organlarining, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, shuningdek statistika bo'yicha milliy ekspertlar orasidan tuziladi.

0.1.3 Respondentlar individual ma'lumotlarining maxfiyligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasiga asosan, rasmiy statistikani tayyorlovchilar tasarrufidagi mavjud individual ma'lumotlardan faqat statistika maqsadlarida, jamlanma statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan xalqaro tashkilotlar tomonidan individual ma'lumotlardan tergov, nazorat qilish, sud

muhokamasi, ma'muriy qarorlar qabul qilish maqsadida yoki jismoniy va yuridik shaxslarga yoki uy xo'jaliklariga taalluqli boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida Nizomda, Davlat statistika qo'mitasi yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining statistika kuzatuvlarini olib borish va olingan ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish huquqiga ega ekanligi hamda olingan statistik ma'lumotlarning maxfiylikini va davlat sirlariga ega bo'lgan statistik ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlashi belgilab qo'yilgan.

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik printsiplariga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday individual ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo'mitasining har bir xodimi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o'z ichiga olgan shartnomaga qo'l qo'yishi shart.

0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 14-moddasiga asosan, davlat statistika organlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi [kodeksining](#) 215-moddasiga muvofiq mansabdor shaxslarning statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo'lgan hisobot va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 16-moddasiga asosan, Statistika dasturlariga binoan statistika kuzatuvlarini o'tkazish chog'ida respondentlar rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ishonchli va to'liq ma'lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi shart.

0.2 Resurslar

0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnika bazasi, kompyuter vositalari va moliyalashtirish

Makroiqtisodiy indikatorlar va milliy hisoblar boshqarmasida 21 nafar xodim ishlaydi. Boshqarma 5 ta bo'limdan iborat:

1. Makroiqtisodiy indikatorlarni shakllantirish va tahlil etish bo'limi;
2. Joriy hisoblar bo'limi;
3. Jamg'arma va yordamchi hisoblar bo'limi;
4. Yashirin iqtisodiyotni statistik baholashni muvofiqlashtirish bo'limi;
5. Xarajatlar va ishlab chiqarish statistikasi bo'limi.

Milliy hisoblar uslubiyoti bo'yicha xodimlarni o'qitish doimiy ravishda olib boriladi. Boshqarma xodimlari quyidagi o'quv kurslarida o'z malakalarini oshiradilar:

- Davlat statistika qo‘mitasining Kadrlarni qayta tayyorlash va statistika tadqiqotlari instituti tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kurslarida;
- Xalqaro valyuta jamg‘armasi tomonidan Birlashgan Vena instituti bilan hamkorlikda tashkil etilgan o‘quv kurslarida, shuningdek, xalqaro statistika tashkilotlarining boshqa seminarlarida;
- Osiyo va Tinch okeani statistika instituti va Xalqaro valyuta jamg‘armasi tomonidan tashkil etilgan onlayn kurslarda.

Boshqarmada kompyuterlar soni yetarlicha bo‘lib, har bir xodim o‘zining kompyuterida ishlaydi. Barcha kompyuterlar lokal tarmoqqa ulangan, shuningdek, internetga kirish imkoniga ega.

Moliyaviy mablag‘lar Davlat statistika ishlari dasturi doirasida taqdim etiladi va Dasturda nazarda tutilgan statistika ishlarini bajarish, shuningdek, yangilangan "Milliy hisoblar tizimi - 2008" qo‘llanmasini statistika amaliyotiga joriy etish bo‘yicha rejalashtirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun yetarlidir.

1. Beg‘arazlik

1.1 Kasbiy mahorat

1.1.1 Statistikaning xolisligi

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan, rasmiy statistikasining asosiy printsiplari, jumladan beg‘arazlik va xolislik hisoblanadi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasiga asosan, Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari davlat statistika organlarining ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Hududiy statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika bo‘limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil bo‘lib, bevosita vakolatli davlat organiga bo‘ysunadi.

Mazkur statistik ma‘lumotni ishlab chiqishda boshqa davlat organlarining aralashishiga yo‘l qo‘yilmagan va kasbiy mustaqillik to‘liq ta‘minlangan.

Kadrlarni tanlab olish va ularni yuqori lavozimlarga tayinlashda, ularning statistika sohasida tajribasi va kasbiy malakasi e‘tiborga olinadi. Boshqarma xodimlari malakasini oshirish Davlat statistika qo‘mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kurslarida hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kurslari, o‘quv-amaliy seminarlarda ishtirokini ta‘minlash orqali ta‘minlanadi. Boshqarma xodimlari Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tashkil etilgan o‘quv kurslarida ma‘ruzalar bilan ishtirok etadi. Ommaviy axborot vositalarida Boshqarma xodimlarining ilmiy maqolalarini e‘lon qilib borish tashkil etilgan.

1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 33-moddasiga muvofiq:

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini ta‘minlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari,

statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini yaxshilash maqsadida ma'lumotlarni tahlil etish va tahrir qilish, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish, ma'lumotlarni statistika maqsadlarida bir-biriga bog'lashni va solishtirishni amalga oshirish hamda baholashning statistik usullaridan foydalanish huquqiga ega.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan manbalar va usullarni, shuningdek yakuniy ma'lumotlar to'plamlarini hujjatlashtirib boradi. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar statistika ma'lumotlarining manbalari va ularni tayyorlash usullari hamda rasmiy statistika ma'lumotlarining sifati to'g'risida metama'lumotlar yordamida xabardor qilinadi.

1.1.3 Statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risidagi Nizomda (15-band) Davlat statistika qo'mitasi rasmiy statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanish va talqin qilish holatlarini ko'rib chiqish hamda ular bo'yicha tushuntirishlar berish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan.

Unga ko'ra, Davlat statistika qo'mitasi statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

1.2 Shaffoflik

1.2.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish qoidalari va tartibining oshkoraligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasiga binoan, rasmiy statistikaning asosiy printsiplari tushunarlilik va shaffoflik. Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun hujjatlarida keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonun va statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish va tarqatish muddatlari aniq ko'rsatilgan statistika dasturi Qo'mita rasmiy veb-saytiga (www.stat.uz) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida, normativ-huquqiy hujjatlar bazasi (norma), shuningdek Adliya vazirligining www.lex.uz manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud. Statistik ma'lumotlarni shakllantirish uchun respondentlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisoboti shakllari Qo'mita rasmiy veb-saytida foydalanuvchilar uchun oldindan e'lon qilinadi.

1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Hukumat Davlat statistika qo'mitasi tomonidan tayyorlangan statistik ma'lumotlarni ularni e'lon qilish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistik ma'lumotlarni tarqatishda davlat

statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi (“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 13-moddasi). Faqat Qo‘mita raisi, uning o‘rinbosarlari va mas‘ul xodimlar statistik ma‘lumotlar e‘lon qilinishidan oldin ularni ko‘ra oladi.

1.2.3 Statistik ma‘lumotlarning atributlari (belgilari)

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Jamoatchilikka e‘lon qilinayotgan bosma statistik nashrlar, axborotnomalar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma‘lumotlarning Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilganligi uning logotipi va izohlari orqali aniq belgilanadi.

1.2.4 Uslubiyatlar, ma‘lumotlar manbasi va statistik usullardagi asosiy o‘zgarishlar haqida oldindan xabardor qilish

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Yangi uslubiyatga o‘tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga sezilarli o‘zgartirishlar kiritishdan oldin Davlat statistika qo‘mitasi jamoatchilikni oldindan xabardor qiladi. Davlat statistika qo‘mitasi o‘z rasmiy veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o‘zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko‘rsatmalarni joylashtiradi. Maqolalar, yangiliklar va matbuot anjumanlarida kutilayotgan o‘zgarishlar jamoatchilikka yetkaziladi.

1.3. Axloq me‘yorlari

1.3.1 Xodimlarning axloq me‘yorlari bo‘yicha ko‘rsatmalar

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi xodimlari uchun Odob-axloq qoidalari tasdiqlangan. Ular axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik printsipligiga rioya qilishlari, o‘zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma‘lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimga tayinlanayotganda ushbu majburiyatlar haqida tushuntirishlar beriladi. Davlat statistika qo‘mitasi xodimi individual ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

2. Uslubiyat

2.1 Konseptsiya va tushunchalar

2.1.1 Konseptsiya va tushunchalar

Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan YaIM MHT-1993 qo‘llanmasida tavsiya etilgan tushunchalar va ta‘riflardan kelib chiqqan holda, yillik va choraklik davriylikda shakllantiriladi. Hozirgi kunda MHT-2008 yangi qo‘llanmasini statistika amaliyotiga joriy etish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Hozirgi vaqtda Davlat statistika qo‘mitasi amaliyotida YaIM ikki xil usulda hisoblanadi:

- ishlab chiqarish usuli (ushbu usulda YaIM rezidentlar tomonidan ishlab chiqarilgan yalpi qo‘shilgan qiymat summasiga mahsulotlarga sof soliqlar summasini qo‘shish yordamida shakllantiriladi);

- xarajatlar usuli (ushbu usulda hisoblangan YaIM summasi institutsional birliklarning yakuniy iste'mol uchun xarajatlarini, yalpi jamg'arish va sof eksport yig'indisini o'zida aks ettiradi).
YaIMni hisoblashning uslubiy asoslari bo'lib "YaIMni ishlab chiqarish usulida hisoblash bo'yicha uslubiy nizom" (Davlat statistika qo'mitasining 2016-yil 29-iyundagi 9-son qarori), "YaIMni yakuniy iste'mol usulida hisoblash bo'yicha uslubiy nizom" (Davlat statistika qo'mitasining 2020-yil 30-noyabrdagi 44-sonli qarori) hisoblanadi.

2.2 Statistika qamrov

2.2.1 Statistika qamrov

2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Hozirgi kunda O'zbekiston milliy hisoblari tizimi iqtisodiy faoliyat turlari va institutsional sektorlar bo'yicha olib boriladigan quyidagi hisoblarni o'z ichiga oladi:

- tovarlar va xizmatlar hisobi;
- iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qo'shilgan qiymatning shakllanishini aks ettiruvchi ishlab chiqarish hisobi;
- YaIMning qiymat tarkibini tahlil qilish uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha daromadlarni shakllantirish hisobi;
- birlamchi daromadlarning taqsimlanishi hisobi;
- ishlab chiqarish faoliyati va qayta taqsimlash jarayonlari natijasida olingan daromadlarning umumiy miqdorini aniqlash uchun daromadlarning ikkilamchi taqsimlanishi hisobi;
- uy xo'jaliklari va davlat boshqaruvi organlarining yakuniy iste'mol xarajatlarini aks ettiruvchi ixtiyordagi daromadlardan foydalanish hisobi;
- kapital xarajatlar va ulardan jamg'arishda foydalanish uchun resurslarning shakllanishini aks ettiruvchi kapital operatsiyalari hisobi.

Hozirgi vaqtda milliy hisoblar ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy hududining barcha rezident birliklarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qamrab oladi.

Iqtisodiyotning norasmiy sektori bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni baholash o'z yakuniy iste'moli uchun ishlab chiqarishini qo'shib, "yashirin" iqtisodiyot va noqonuniy faoliyat ko'rsatkichlarini qo'shmagan holda amalga oshiriladi.

2.2.1.2 Statistika qamrovdan istisnolar

Istisnolar yo'q.

2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Iqtisodiyotning norasmiy sektori bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni baholash "yashirin" iqtisodiyot va noqonuniy faoliyat ko'rsatkichlarini qo'shmagan holda amalga oshiriladi.

2.3 Tasniflash/sektorlar bo'yicha taqsimlash

2.3.1 Tasniflash/sektorlar bo'yicha taqsimlash

O'zbekiston MHTda milliy iqtisodiyotning quyidagi sohalari ajratib ko'rsatilgan: nomoliyaviy korporatsiyalar, moliyaviy korporatsiyalar, davlat boshqaruvi, uy xo'jaliklari, uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar. Mamlakat iqtisodiyoti sohalarining boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlari milliy iqtisodiyotning rezidentlari bilan o'zaro aloqada bo'lgan barcha norezident korporativ birliklarni birlashtiradigan "Tashqi dunyo" hisobida o'z aksini topadi.

YaIMni ishlab chiqarish usulida tarmoqlar kesimida baholash uchun iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT-2)dan foydalaniladi.

2.4 Hisobga olish asoslari

2.4.1 Baholash

Oqimlar va zahiralarni hisobga olishda foydalaniladigan qiymatni baholash qoidalari to'raligicha MHT-2008 tahririyatiga mos keladi:

- bozor mahsulotlarining qiymati asosiy baholarda aks ettiriladi;
- o'z iste'moli uchun mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi bozor baholariga tenglashtirilgan narxlarda baholanadi;
- import SIF baholar asosida, eksport esa FOB baholari asosida baholanadi;
- xorijiy valyutadagi operatsiyalar bozorda jarayonni amalga oshirish vaqtidagi o'rtacha almashinuv kursi orqali qayta hisoblanadi;
- MHTda iqtisodiy operatsiyalarni hisobga olish, asosan, operatsiyalarning amalga oshirish jarayonidagi hisoblangan narxlar (joriy narxlar) asosida amalga oshiriladi;
- nobozor tovarlar va xizmatlarni baholashda, agarda ularning bozor narxlari ma'lum bo'lmasa, ishlab chiqarishga xarajatlari orqali yoki shu kabi tovarlar va xizmatlar uchun qo'llash mumkin bo'lgan bozor narxlaridan foydalangan holda baholanadi. Xususan, davlat boshqaruv xizmatlari va uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar xizmatlari ishlab chiqarish xarajatlarini baholash orqali hisoblanadi.

2.4.2 Hisobga olish asosi

Operatsiyalar va oqimlar "MHT-2008" qo'llanmasining tavsiyalariga muvofiq hisoblash usuli yordamida hisoblanadi. Davlat boshqaruvi sektori bo'yicha ma'lumotlar kassa xarajatlari usulida hisoblanadi.

2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartib-taomillari

YaIM yalpi asosda hisoblanadi, ya'ni yalpi qo'shilgan qiymat ishlab chiqarish ayrilgan oraliq iste'molga teng. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati asosiy kapitalning iste'molini qo'shgan holda hisoblanadi.

3. Aniqlilik va ishonchlilik

3.1 Birlamchi ma'lumotlar

3.1.1 Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish asoslari

Ishlab chiqarish usuli.

Ishlab chiqarish usulida YaIMni baholash uchun ma'lumotlar manbai bo'lib, quyidagilar xizmat qiladi: iqtisodiy faoliyat turlarining qisqa muddatli kuzatuvlari, kichik korxonalar, mikrofirmalar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning tanlanma kuzatuvlari, uy xo'jaliklari budjeti kuzatuvlari, korxonalar va tashkilotlarning tarkibiy kuzatuvlari, shuningdek, davlat budjetining ijrosi to'g'risida, bojxona va soliq organlarining ma'muriy ma'lumotlari, budjetdan tashqari jamg'armalarning, Markaziy bankning moliyaviy ko'rsatkichlari va boshqalar.

Choraklik statistik ma'lumotlar yirik korxonalarning statistik hisobotlari va kichik korxonalarning tanlanma kuzatuv ma'lumotlari asosida to'liq hajmda shakllantiriladi. Choraklik va yillik baholashni amalga oshirishda hisobot davriga mos bo'lgan statistika kuzatuvlari va korxonalarning moliyaviy hisobotlari ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Xarajatlar usuli.

Uy xo'jaliklarining yakuniy iste'molga xarajatlari tovar va xizmatlar guruhlari bo'yicha statistika hisobotining chakana savdo, pullik xizmat ko'rsatish hisobotlari ma'lumotlari, asosiy oziq-ovqat resurslari balansi ma'lumotlari hamda uy xo'jaliklari so'rovnomalarining ma'lumotlaridan foydalangan holda aniqlanadi.

O'z iste'moli uchun ishlab chiqarilgan tovarlarning qiymati, tovarlarning joriy bozor narxlariga asosida hisoblanadi. Davlat boshqaruv organlari xarajatlarini baholash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisoboti ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarining yakuniy iste'molga qilgan xarajatlari uy xo'jaliklariga bepul taqdim etilgan iste'mol tovarlari va xizmatlariga qilingan xarajatlardan iborat. Shuningdek, bu xarajatlarga o'z ishchilariga bepul xizmatlar ko'rsatish uchun korxonalar va tashkilotlar tomonidan moliyalashtiriladigan ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat muassasalari xarajatlari ham kiradi.

Ushbu ko'rsatkichni hisoblashda YaIMning ishlab chiqarish usulidagi hisoblaridan olingan ijtimoiy-madaniy soha ob'yektlarini saqlab turishga qilingan xarajatlar hajmi bo'yicha ma'lumotlardan foydalaniladi. Uy xo'jaliklariga nodavlat-notijorat tashkilotlari tomonidan taqdim etiladigan tovarlar va xizmatlar hajmi notijorat tashkilotlarining statistika kuzatuvlari asosida aniqlanadi.

Yalpi jamg'arish va moddiy aylanma vositalar zahirasi o'zgarishi to'g'risidagi ko'rsatkichlar statistika kuzatuvlarining ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

Tovar va xizmatlarning eksport va import hajmi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining to'lov balansi ma'lumotlari va Davlat statistika qo'mitasining kuzatuvlari asosida hisoblanadi.

3.1.2 Birlamchi ma'lumotlarning ta'rifi, qamrovi, tasniflari, baholanishi va hisobga olish davri

Birlamchi ma'lumotlar milliy hisoblarning ta'riflariga, statistik qamroviga va tasnifiga, hamda hisobga olish vaqti, hisobot davri va baholash tamoyillariga to'la mos keladi.

Milliy hisoblarni takomillashtirish maqsadida statistika kuzatuv shakllari muntazam ravishda ko'rib chiqiladi.

3.1.3 Birlamchi ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi

Ma'lumotlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Davlat statistika ishlari dasturida belgilab berilgan vaqtdan kechiktirilmagan holda taqdim etib boriladi.

3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

Milliy hisoblarni shakllantirishda ma'lumotlar manbai sifatida quyidagilardan foydalaniladi: yuridik shaxslarning (korxonalar va tashkilotlar) statistika kuzatuv ma'lumotlari, Davlat statistika ishlari dasturida ko'zda tutilgan iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha norasmiy sektorni muntazam kuzatish natijalari, uy xo'jaliklari budjetining tanlanma kuzatuvlari, Moliya vazirligining Davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlari, Davlat soliq qo'mitasining ma'lumotlari, Davlat bojxona qo'mitasining ma'lumotlari, Markaziy bankning to'lov balansi hamda boshqa ma'muriy manbalar.

3.3 Statistik usullar

3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar

YaIM ishlab chiqarish usulida.

Doimiy narxlarda hisoblash usullari.

YaIM tarkibiy qismlarini doimiy narxlarda hisoblash ikki asosiy usuldan foydalangan holda amalga oshiriladi:

- joriy narxlardagi hisobot davri ma'lumotlarini mos narxlar indeksi orqali deflyatsiya qilish;
- joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri ma'lumotlarini fizik hajm indekslari yoki ushbu iqtisodiy faoliyat turining rivojlanish sur'atlarini mantiqan to'g'ri ifodalovchi natural indikatorlar orqali ekstrapolyatsiya qilish.

Ayrim hollarda ko'rsatkichlarni doimiy narxlarda hisoblashning to'g'ridan-to'g'ri qayta baholash usuli ham qo'llaniladi, bu usul hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini o'tgan yilning mos davri narxlariga ko'paytirish orqali amalga oshiriladi.

YaIM tarkibiy qismlarini hisoblashda asosan deflyatsiya usulidan foydalaniladi, mos narxlar indeksi mavjud bo'lmagan hollarda ekstrapolyatsiya qilish usuli qo'llaniladi.

YaIMning tarkibiy qismlari jamlangan qiymatlar bo'lganligi sababli, ularni baholash usullari yuqorida aytib o'tilgan usullar birikmasidan iborat bo'ladi.

YaIM yakuniy iste'mol usulida.

YaIMni doimiy narxlarda baholash usullari.

YaIM bo'yicha iste'mol ko'rsatkichlarini doimiy narxlarga o'tkazish uchun quyidagilar qo'llaniladi:

- uy xo'jaliklarining yakuniy iste'molga qilgan xarajatlari uchun iste'mol narxlari indeksi;
- davlat muassasalari xarajatlari uchun natural ko'rsatkichlar, masalan, tarmoqlarda band bo'lganlar sonining o'zgarishi;

- asosiy kapital jamg'arilishi uchun asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar bo'yicha narxlar indeksi;
- moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'zgarishi uchun sanoatda ishlab chiqaruvchilar narxlarining indeksleri;
- eksport va import uchun milliy valyutaning ayirboshlash kursini hisobga olgan holda, eksport va import qilinadigan mahsulotlar bo'yicha narxlar indeksleri.

3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar

Yillik va choraklik milliy hisoblarda qonun bilan taqiqlangan faoliyatlar baholanmaydi. Norasmiy faoliyatni maxsus tadqiqotlar, ma'muriy ma'lumotlar va uy xo'jaliklarining tanlanma kuzatuv ma'lumotlari asosida baholanadi.

3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash

Ayrim ma'lumotlar manbalari keskin farq qiluvchi qiymatlar bor yoki yo'qligi tekshirib boriladi. Keskin farq qiluvchi qiymatlar aniqlanganda milliy hisoblarni shakllantiruvchi xodimlar tegishli bo'linmalarga ma'lumotlarni tekshirish uchun murojaat qiladilar. Dastlabki ma'lumotlar tahlil qilinadi va dinamik mosligi tekshiriladi.

3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash

Asosiy oraliq ma'lumotlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan farqlar tahlil qilib boriladi va bu farqlarni bartaraf etish uchun moslashtirish ishlari amalga oshiriladi. Xususan, quyidagi koeffitsientlar ehtiyotkorlik bilan tekshiriladi: oraliq iste'mol / ishlab chiqarish, yalpi qo'shilgan qiymat / ishlab chiqarish. Bundan tashqari, faoliyat turlari kesimida qo'shilgan qiymatning tarkibi xronologik mosligi tekshiriladi.

3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi tafovutlar va boshqa nomuvofiqliklarni o'rganish

YaIMni ishlab chiqarish va xarajatlar (yakuniy iste'mol) usullari orqali hisoblaganda yuzaga kelgan tafovutlar tahlil qilinadi. Resurslar va ishlatilishi jadvallari har yili shakllantiriladi hamda tahlil qilib boriladi.

3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish

YaIM ko'rsatkichlarini qayta ko'rib chiqish tartibi har yili tasdiqlanadigan Davlat statistika ishlari dasturida aks etadi. YaIMni yillik (dastlabki) baholash hisobot yili yakunlangandan so'ng 1 oydan keyin taqdim etiladi. YaIMni ushbu baholanishi hisobot yilidan keyin 15 oydan so'ng yillik statistik hisobot ma'lumotlari asosida qayta ishlanadi.

4. Amaliy yaroqlilik

4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

4.1.1 Davriylik

YaIM choraklik va yillik davriyliklarda shakllantiriladi.

4.1.2 O'z vaqtidaligi

YaIMni choraklik dastlabki baholash hisobot choragidan bir oy keyin shakllantiriladi.

YaIMni choraklik dastlabki baholashni qayta baholash 12 oydan so'ng.

YaIMni yillik yakuniy baholash 15 oydan so'ng.

4.2 Qiyosiylik

4.2.1 Ichki qiyosiylik

YaIMni ishlab chiqarish va xarajatlar (yakuniy iste'mol) usullari orasidagi statistik tafovutlar aniq ko'rsatilib o'tiladi. YaIMni baholashdagi tafovutlar tahlil qilinadi.

4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik

YaIMni 1991 yildan boshlab yillik hisob-kitoblari hamda 2000 yildan boshlab choraklik hisob-kitoblari mavjud. YaIM 1991-1993 yillar rublda, 1994 yildan so'mda ifodalangan. 2016 yil I chorakdan boshlab YaIM IFUT-2 ga asoslangan holda baholanadi. IFUT-2 tarkibi bo'yicha yillik YaIM 2010 yildan boshlab qayta hisoblab chiqilgan.

2010 yildan boshlab, ma'lumotlar qishloq xo'jaligini hisobga olish uslubiyatidagi o'zgarishlarni, shuningdek, uy-joy egalari tomonidan o'z iste'moli uchun ishlab chiqarilgan yashash xizmatlari va eksport-import ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda qayta hisoblab chiqilgan.

4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik

Milliy hisoblarni tuzishda to'lov balansining ba'zi moddalari, shuningdek, davlat moliyasi statistikasi ma'lumotlari ishlatiladi. Hozirgi vaqtda MHT-93 va MHT-2008 da nazarda tutilgan iqtisodiyotning institutsional sektorlari bo'yicha integrallashgan milliy hisoblar shakllantirilmoqda.

4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali

Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish davri oldindan belgilab boriladi va yildan yilga barqarorlashib boradi. Choraklik YaIM ko'rsatkichlarini qayta ko'rib chiqish tartibi har yili tasdiqlanadigan Davlat statistika ishlari dasturida aks etadi.

4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko‘rib chiqilgan ma’lumotlarni aynan shu toifasi bo‘yicha belgilash

Dastlabki ma’lumotlar nashr qilinganda belgilanadi va zaruriyatga qarab, ularga izoh beriladi.

4.3.3 Ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqishni o‘rganish va tahlil qilish bo‘yicha olingan natijalarni tarqatish

Qayta ko‘rib chiqilgan (yakuniy) ma’lumotlar Davlat statistika qo‘mitasi nashrlari va rasmiy veb-sayti orqali taqdim etiladi.

5. Qulayligi

5.1 Ma’lumotlar

5.1.1 Statistika ma’lumotlarni taqdim etish

Choraklik va yillik ma’lumotlar foydalanuvchilarga «O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati», «O‘zbekiston Respublikasining statistik axborotnomasi», «O‘zbekiston Respublikasining milliy hisoblari», «O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami», «O‘zbekiston raqamlarda» va boshqa statistik to‘plamlar, shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining <http://www.stat.uz> nomli rasmiy saytida nashr qilish orqali taqdim etiladi.

YaIM ko‘rsatkichlari, o‘shish sur‘atlari va tarmoqlarning ulushlari tushunarli ko‘rinishda grafiklar, jadvallar, qisqacha tahliliy sharhlar bilan nashr etiladi. YaIM ishlab chiqarish usulida ham, xarajatlar usulida ham batafsil nashr etiladi.

Nashrlarda ma’lumotlarni to‘g‘ri talqin qilish uchun asosiy ko‘rsatkichlarga metodologik tushuntirishlar beriladi, bundan tashqari, veb-saytda statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirish va ularni hisoblash bo‘yicha uslubiy nizomlar joylashtiriladi. Nashrlar va veb-saytlardagi ma’lumotlarni solishtirish uchun jadvallar va grafiklar shaklida bir nechta davrlar uchun indikatorlar keltiriladi.

Statistik ma’lumotlarni nashr etilishi muddatlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan har yili tasdiqlanadigan Davlat statistika ishlari dasturida aks ettiriladi.

5.1.2 Ma’lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari

5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining «O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati» (har chorakda), «O‘zbekiston Respublikasining statistik axborotnomasi» (har chorakda), «O‘zbekiston Respublikasining milliy hisoblari» (ikki yilda bir marta), «O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami» (ikki yilda bir marta), «O‘zbekiston raqamlarda» (yilda bir marta) nashrlari orqali chop etilgan shaklda foydalanuvchilarga taqdim etib boriladi. Bundan tashqari, ma’lumotlar davlat boshqaruvi organlariga va boshqa foydalanuvchilarga ularning talablariga binoan kelishilgan jadvallar ko‘rinishida taqdim etib boriladi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar jadvallar, grafiklar va diagrammalar shaklida qisqa tahliliy sharhlar bilan nashr etiladi.

5.1.2.2 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.3 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.4 Bosma shaklda – Yillik byulletenlar

Har chorakda «O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati», «O'zbekiston Respublikasining statistik axborotnomasi» nashrlari taqdim etiladi, bundan tashqari statistik ma'lumotlar davlat boshqaruvi organlariga va boshqa foydalanuvchilarga ularning talablariga binoan kelishilgan jadvallar ko'rinishida taqdim etib boriladi.

5.1.2.5 Bosma shaklda – Boshqalar

Yillik ma'lumotlar «O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami» (ikki yilda bir marta), «O'zbekiston Respublikasining milliy hisoblari» (ikki yilda bir marta), «O'zbekiston raqamlarda» (yilda bir marta), «Resurslar va ishlatilish jadvallari», «Xarajatlar va ishlab chiqarish jadvallari» (yilda bir marta) nashrlari orqali, bundan tashqari, davlat boshqaruvi organlariga va boshqa foydalanuvchilarga ularning talablariga binoan kelishilgan jadvallar ko'rinishida taqdim etib boriladi.

5.1.2.6 Elektron shaklda - Byulleten yoki nashrlar

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy saytida statistik ma'lumotlar - elektron jadvallar ko'rinishidagi dinamik qatorlar, press-relizlar har chorakda joylashtiriladi va muntazam yangilanadi, shu bilan birga, «O'zbekiston Respublikasining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari» taqdim etiladi.

5.1.3. Ma'lumotlarni e'lon qilish jadvali

| |
|--|
| |
|--|

5.1.4 Bir vaqtning o'zida e'lon qilish

| |
|--|
| |
|--|

5.1.5 So'rov bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

O'zbekiston Respublikasining «Rasmiy statistika to'g'risida»gi Qonuni, «O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida»gi Nizom, Statistik axborotlarni tayyorlash va tarqatish ishlarini tashkil etish qoidalari va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq, statistik ma'lumotlar foydalanuvchilarga ularning so'rovlari bo'yicha belgilangan tartibda taqdim etib boriladi. Statistik axborotlarni tarqatish yuridik yoki jismoniy shaxslarning yozma so'rovlari

bo'yicha bosma yoki elektron jadval ko'rinishida, statistik to'plamlar, byulletenlar, tezkor axborot shaklida, shuningdek, tomonlar o'rtasidagi axborot almashinuvi to'g'risidagi bitimlarga asosan amalga oshiriladi.

5.2 Metama'lumotlar

5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, tasniflar, hisobga olish asoslari, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarni tarqatish

Ma'lumotlar to'g'risidagi konsepsiyalar, statistik qamrovlar, tasniflar, hisoblash asoslari, ma'lumotlar manbalari va statistik usullar tarqatiladigan asosiy ko'rsatkichlarga uslubiy tushuntirishlar ko'rinishidagi statistik to'plamlarda o'z aksini topadi. Statistik ko'rsatkichlarni shakllantirish, hisoblash bo'yicha uslubiy nizomlar veb-saytga joylashtiriladi.

5.3. Foydalanuvchilarga yordam ko'rsatish

5.3.1 Aloqa bog'lash bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

9. Rejalar

9.1 Oxirgi

9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

IFUT-2 statistik amaliyotga joriy etildi.
Turizm yordamchi hisobi joriy etildi.
O'R MIIT 2018 statistik amaliyotga joriy etildi.
Uy-joy egalari tomonidan o'z iste'moli uchun ishlab chiqarilgan yashash xizmatlarini foydalanuvchilarnig xarajatlari usulida hisoblash joriy etildi.
Ekport-import ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan taqdim etiladigan To'lov balansi bilan to'liq muvofiqlashtirildi.

9.2 Umumiy

9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli

MHT-2008 ni yangi qoidalarini amaliyotga joriy etish;
Sof choraklar bo'yicha milliy hisoblarning asosiy agregatlarini doimiy narxlarda hisoblashni takomillashtirish;
Yakuniy iste'mol usulida YaIMni hisoblash metodologiyasini takomillashtirish.

9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O'rta muddatli

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni hisobga olishni takomillashtirish.

9.3 Moliyaviy

9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko‘makka talab – Qisqa muddatli

MHT-2008 ga muvofiq makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblashni takomillashtirish uchun texnik yordam ko‘rsatish talab qilinadi.

9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko‘makka talab – O‘rta muddatli

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni hisobga olishni takomillashtirish uchun texnik yordam ko‘rsatish talab qilinadi.

Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

| | |
|--|--|
| F.I.O.: | Mamirov Aziz Otaxonovich |
| Lavozim: | Boshqarma boshlig'i |
| Bo'linma: | Makroiqtisodiy indikatorlar va milliy hisoblar boshqarmasi |
| Idora: | O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi |
| Manzil: | Mustaqillik 63 |
| Shahar/region: | Toshkent shahri |
| Mamlakat: | O'zbekiston Respublikasi |
| Pochta indeksi: | 100170 |
| Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam | 998-71-2038028 |
| Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam | 998-71-2038022 |
| Elektron manzil: | a.mamirov@stat.uz |